

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA

O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

A.QODIRI NOMLI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA – PSIXOLOGIYA FAKUL'TETI

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHI TALABASI

MELIYEVA NODIRA

PEDAGOGIKA FANINI O'QITISH METODIKASI FANIDAN

KURS ISHI

MAVZU: “MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARDA

SABR – QANOAT HISSINI SHAKLLANTIRISH”

TEKSHIRDI: G.Qo'shaqova

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA SABR –

QANOAT HISSINI SHAKLLANTIRISH

REJA:

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari katta gurux bolalaridasabr – qanoat hissini shakllantirish.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari bolalarida ertaklar vositasida.
3. Katta guruh bolalarida ertaklar vositasida sabr – qanoat hissini tarbiyalashga oid ilg'or tajribalar

Umumiy xulosa.

Adabiyotlar ro'yxati.

KIRISH

Shaxs kamolotining asosiy mezonini sanalgan ma'naviyat bolalarni uzluksiz ta'lim jarayonida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida inson hayotining ma'naviy boyligi uning sabrli va bardoshligidadir, degan edi.

Sabr deb, boshimizga kelgan va tushgan g'am va balo-qazolarga bardoshli, chidamli bo'lishlikga aytiladi.

Har bir ishda sabrli bo'lish lozim. Sabr qilgan inson o'z maqsadlariga albatta erishadi.

Qanoatlilik shaxsning kundalik hayotidagi duch keladigan barcha katta kichik qiyinchiliklarga sabr bardoshli bo'lib, barchasiga chidashi va sabr qilishi insonga ulug'lik bag'ishlaydi.

Ulug' mutafakkir va buyuk donishmand Ali Yazdiy aytadilarki:

Qanoatdadir ko'ngillarni safosi,

Qanoat barcha illatning davosi.

Ulug' mutafakkir Davoniy o'zining “Axloqiy Jiloniy” asarida sabr va qanoatni mohiyati va axloqiy tarbiyadagi o'rniga katta baho bergan edi.

Bu ulug' zot qanoat tushunchalarining quyidagi ko'rinishlarini ko'rsatgan edi:

- Boshqalarga taqlid qilmasdan boriga qanoat qilish;
- Eyish – ichishga, hissiyotlarga berilmaslik;
- Boylikka hirs qo'ymaslik.

Sabr –qanoat hissining falsafiy, pedagogik, psixologik jihatdan tadqiq qilgan mutafakkirlar bu borada turlicha fikr bildiradilar. Faylasuf olim Muhammad Zabalrudiyning fikriga ko'ra, sabr barcha mehnat va og'irlikni engishdir. Inson qanchalik bechora va nogiron bo'lsa ham u o'zini baquvvat tutishi va ochiq chehrali, ochiq yuzli bo'lishi lozim.

Yusuf Xos Xojib, Nizomiy Ganjaviy, Gulxaniy, Abdulla Alvoniylar ham qanoatni eng oliy fazilat deb hisoblaganlar va uni mohiyatini quyidagicha

izohlaganlar: “Qanoat – aqlli odamlarning fazilatidir. Qanoatli kishining qorni hamisha to’qdir”.

Mazkur muammo yuzasidan ko’plab olimlar ilmiy izlanishlar, tadqiqot ishlarini olib borganlar. Jumladan, M. Quronov, S.Nishonova, O.Musurmonova, O.Hasanboeva, X.Xudoyqulov, M.Inomova va boshqalar komil inson tarbiyasi muammosida sabr va qanoatni mazmun va mohiyatiga ham e’tibor qaratganlar. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tizimida ham bu boada birmuncha ishlar qilishga harakat qilingan. Jumladan, F.Qodirova, I.Valixujaeva, O.Jamoldinova va M.Komilovalar ham o’zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida bu muammoni qisman yoritib berganlar. Shu nuqtai – nazardan kelib chiqqan holda, mazkur muammo o’zining dolzarbligini yo’qotmagan.

1. Maktabgacha ta'lim muassasalari katta gurux bolalaridasabr – qanoat hissini shakllantirish

Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta guruxidagi bolalarda “sabr”, “qanoat” tushunchalari haqida ma'lumotlar berishda Jizzax shahridagi Do'stlik nomli 10-sonli va Jizzax tumanidagi G'uncha nomli 3-son maktabgacha ta'lim muassasalarining ish tajribalarini o'rgandik va ular asosida quyidagi vazifalarni belgilab oldik.

1. Sabr va qanoat tushunchalari haqida umumiy holatda tahlil etilmagan holda berilishini;
2. Oldini olish uchun har bir ma'naviy – axloqiy tushunchalarni izohlab, ma'nosini tushuntirishni;
3. Sabr – qanoat haqidagi xalq og'zaki ijodini turli janrlaridan foydalanish;
4. Sabr – qanoatga oid kichik – kichik suhbatlar uyushtirish;
5. Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta guruhidagi bolalarni bilim olish, do'st tutinish, mehnat qilishga o'rgatish, shoshqaloqlik qilmaslik, sabrli bo'lish g'oyasi bilan sug'orilgan mashg'ulotlardan namunalar keltirish.

Mavzu: “Kim bilimdon”.

Maqsad: Bolalarni aqlli, axloqli, mehnatsevar qilib tarbiyalash, salomlashish odobi, o'zidan kattani hurmat qilish, “Siz”lab murojaat qilish, “kechirasiz, mumkinmi, rahmat, marhamat, labbay, xo'p bo'ladi” kabi so'zlar va iboralardan o'z o'rnida foydalanishga o'rgatish.

“Odob boshidan, aql yoshidan”, “Maqtanma g'oz, hunaring oz” kabi maqollarning mazmunini chaqishga, maqtanchoq bo'lmaslikka o'rgatish.

“Bu qanday harf” o'yinlari orqali yangi o'zbek alifbosi harflarini tanib ayta olish, to'g'ri talaffuz qilish, so'zlarni bo'g'inlarga ajratish, so'zlardan

gap tuzish, tez aytish, she'rlarni yodlab borish, son – sanoq malakasini o'stirish, 20 gacha o'ng va teskari sanash, aralash sonlarni tartib bilan joylashtirish.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining katta guruhidagi bolalarni bilim olish, do'st tutinish, mehnat qilishga, sabr – qanoatga, sabrli bo'lish g'oyasi bilan sug'orilgan mashg'ulotlardan namunalar keltiramiz.

1-CHI MASHG'ULOT.

Mashg'ulotlarda 7ta tushunchalarni paypaslash orqali sezgi – idrok etish malakasini rivojlantirish, test orqali 10 sonini hosil qilish.

Jihoz: tartib sonlar, sexrli sandiq, sexrgar kampir, tulkivoy, bosma harflar, sport anjomlari.

Mashg'ulotning borishi.

Tulkivoy sandiqchani oladi. Tulki : uf, rosa charchadim, sandiqcha og'ir ekan. Sandiqchani stol ustiga qo'yib. Uning ustiga o'tiradi. Voy – buy, bu erda bolalar bor ekanku, bular kim bo'ldi ekan – a?

Hoy bolalar, men bu sandiqchani o'g'irlab keldim, bilasizlarmi, hozir ko'rsataman qanday o'g'irlab kelganimni (ko'rsatadi).

Mana shunaqa, kampir uxlab yotgan ekan, men olib qochdim, bilmay qoldi, zo'r ish bo'ldi – da. Shundaymi bolalar?

Bolalar javobi:

Bola : Hoy tulkivoy, yaxshi ish qildim deb o'ylama, “MAqtanma g'oz, hunaring oz” degan maqolni eshitmaganmisan? Sen birovning narsasini, sandig'ini o'g'irlabsan, bu ishing yaxshi emas. “To'g'ri o'zadi, o'g'ri to'zadi” degan maqolni mag'zini chaqib olsang yaxshi bo'lardi.

Tulkivoy :

Kim o'zadi, kim to'zadi, kim oladi, nima ishing bor, bor-ey.

Bola :

Tulkivoy, sen juda odobsiz ekansan. Bu erdan tezroq ket, bog'cha opam odobsizlarni yomon ko'radilar.

Tarbiyachi :

Juda ham to'g'ri, men odobli, aqlli, dono, bilimli bolalarni yaxshi ko'raman. Bizning bolalarimiz ana shunaqa bolalar. Undan keyin, eshikdan kirib kelganda nima deyish kerak, bu so'zni bilasizmi?

Tulkivoy :

Yo'q.

Tarbiyachi :

Bu juda kerakli, yoqimli so'z : "Assalomu alaykum" deyishing kerak edi. Bolalar bu so'zning ma'nosini bilasizlarmi, kim buni aytib beradi?

Bola :

"Assalomu alaykum" degani sizga sog'liq tilayman degan ma'noni anglatadi, endi bilib oldingmi?

Tulkivoy :

Ha.

Bola shundan keyin "Salom" she'rini aytib beradi.

Tarbiyachi :

Barakalla. Endi, tulkivoy bu sandiqchani olib, buviga olib borasan, kechirim so'rab berib kelasan. Kechirim so'rash eng yaxshi odat.

Tulkivoy :

Yo'q, bu sandiqcha meniki, uning ichidagilarni barchasi meniki. Qani, ko'raylikchi, ichida nima bor ekan.

Xuddi shu mahal eshik taqillab qoladi.

Tarbiyachi :

Bolalar, kim keldi ekan, nozir bo'lsa-ya. Eshikdan sehrigar kampir kirib keladi. Tulkivoy esa daraxt orqasiga yashirinadi.

Sehrigar kampir :

Assalomu alaykum aziz bolajonlarim! Sizlarning oldingizga kelishim uchun sizlarga sovg'a tayyorlab qo'ygan edim, lekin uni kimdir o'g'irlab ketibdi. (Sehrgar kampir sandiqchani ko'rib qoladi). Iya, bu men sizlar uchun tayyorlagan sehrli sandiqcha-ku. Bolalar, meni sandiqchamni kim olib keldi?

Bolalar : Tulkivoy.

Sehrgar kampir :

O'zim ham shunday bo'lsa kerak deb o'ylagan edim. Tulkivoy, qaerga yashirinib olding? Qani bu yoqqa chiq. Tulkivoy yashirinib yotgan joyidan chiqib keladi. Sehrgar kampir tulkivoyga nasihat, ugit beradi – seni qilgan ishing eng xunuk ish ekanligini tushuntiradi. Tulkivoy o'zining qilgan ishidan uyalib, sehrgar kampir va bolalardan kechirim so'raydi.

Sehrgar kampir :

Aziz bolajonlarim! Do'mboqlarim! Endi men sehrli sandiqchamni ochaman (shu erda musiqa yangraydi). Bog'cha opasi, menga yordam berasiz, men bolajonlar uchun turli – tuman topishmoqlar olib kelganman.

Bog'cha opa topishmoqlar yozilgan qog'ozni olib o'qib beradi va bolalarning ishlarini kuzatadi.

topishmoqlar;

1 va 7 tugmachani paypaslash orqali nechta ekanligini, qaysi hafta kuni ekanligini, qanday nomlanishini aytish;

20gacha, o'ng va chap, teskari sanash, aralashtirilgan sonlarni tartib bilan joylashtirish :

0, 1, 2, 3,9,20.

4. Matnda ishlatilgan yangi o'zbek alifbosidagi harflarni topish;

5. Guruxga bo'linib kim ko'p ism topish;

6. Sport turlaridan parcha ko'rsatib, uni aytib berish. O'zbekiston iftixorlaridan kimlarni bilasiz?

Tarbiyachi :

Bolalar, topshiriqlarni juda ham yaxshi bajarayapsizlar. Endi men bir ertakni boshlab beraman, sizlar esa davom ettirasizlar. Bu ertak “Durdona” kitobidan olingan. Tarbiyachi ertakni boshlab berdi, bolalar esa davom ettirdilar.

Mashg’ulot yakuni :

Sehrgar kampir bolalardan juda xursand bo’lib ketadi va bolajonlarim, sizlardan juda xursand bo’ldim, men o’ylaganimdan ham ko’ra aqlli, odobli, ziyrak, teran fikrli bilimdon ekansizlar. Mustaqil O’zbekistonning gullab yashnashi, ravnaqi uchun xizmat qiladigan sog’lom, barkamol avlod bo’lib etishasizlar deb umid qilaman deydi va bolalar bilan xayrlashib chiqib ketadi. Tarbiyachi mashg’ulotni yakunlaydi.

2-ChI MASHG’ULOT.

Mashg’ulotni borish bayoni:

Kirish suhbatini “Do’st” ertagidan bir ko’rinishni sahnalashti-rish bilan boshlash. Tarbiyachi : Bolalar bu ertakdan do’stlar kimlar ekan va ular qaysi do’stlarga qanday yordam berishadi. O’rgangan maqollarimizdan qay biri bu ertagimizga to’g’ri keladi? Aytingchi, bolalar sabrlilik o’zi nima?

Bolalar :

Sabr – bu boriga qanoat qilish.

Sabr – bu nur.

Sabr – bu olov.

Sabr – bu quyosh.

Aytingchi, bolalar do’stlik o’zi nima?

Do’stlik –po’lat.

Do’stlik – olov.

Do’stlik – do’stlik bilan yanchilgan yov.

Tarbiyachi : bolalar, do'stlar necha turga bo'linadi? Do'stlashishning nechta qoidasi bor?

Bolalarning javobini umumlashtirish va ularni rag'batlantirish.

Do'stlik haqida o'qib, so'zlab berilgan ertak, hikoyalar, she'rlar bo'yicha savollarga tushunib javob berishga, ifodali vositalardan foydalanib hikoya qilib berishga o'rgatishni davom ettirish.

Asar qaxramonlari tasvirlangan rasmlarga qarab asarlarni nomi, g'oyasini aytib berishga o'rgatish. Do'st, do'stlarning turlari, do'stlashish odoblari haqidagi bilimlarni kengaytirish. G'ar bir asar mazmuni va g'oyasiga mos keladigan maqollarni to'g'ri aytishni mashq qildirish.

Mashg'ulot jarayoni so'zlarni, tovushlarni aniq, burro talaffuz qilish, she'r va boshqa asarlarni ifodali aytib berish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish malakalarini mustahkamlaydi.

Do'stlik haqidagi ertak, hikoya, she'rlar to'plash, ularni bolalarga o'qib berish, hikoya qilish berish, she'r yodlash, har bir asarning mazmuni bo'yicha tabiat hodisalarni kuzattirish, bolalar ishtirokida asar mazmuniga xos rasmlarni chizdirish, "Do'stlar" ertagidagi qaxramonlarni bildiradigan bosh kiyimlarni bolalar ishtirokida chsash va ertakni saxnalashtirishni o'rgatish xam bolalarda sabr li bo'lish xislatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Mashg'ulotning asosiy qismida O'.Hoshimovning "Tomchi" ertagini davom ettir o'yini orqali bolalarga hikoya qildirish. Milliy "guldur gup" xalq o'yinini bolalarga o'rgatish. Sabr – qanoat haqida ertaklar aytib berish, saxiylik xislatini shakllantirish. Do'stlik haqida hikoyalar bo'yicha rasmlar ko'rsatish va nomini aytishni so'rash, bunga mos qanday maqollarni bilishini so'rash.

Tarbiyachi :

Do'stning do'stligi yomon kunda bilinadi maqoliga qanday hikoya va ertaklarni bilasiz?

Bolalar bunga javoban “Do’st” xikoyasini va “Gulbaxorning do’stlari” ertagini aytib beradilar.

O’zbek xalq milliy o’yini “Mexmonmisiz” o’yinini o’tkazish. O’yinda ikkita qiz bola qatnashadi. O’yin shartiga ko’ra, birinchi qiz ikkala kafitlarini ochgan xolda o’rtog’i tomon uzatib turadi. Ikkinchi qiz esa:

Tog’da lola,
 Bir qiz bola,
 Ko’chaga chiqing,
 Bir qiz keldi,
 Sochi mayin.
 Kiyimi belda,
 Voy qo’lim-ey,
 Voy belim-ey,
 Omonmisiz, esonmisiz,

Bugun bizga mexmonmisiz deb turgan zahoti chaqqonlik bilan dugonasining kaftlarini urib qochadi. Shunda uning qo’lini dugonasi tutib olsa yoki belgilangan marragacha quvganida o’rtog’iga etolmasa, o’yin galini olib, endi u qo’shiqni takrorlashi lozim bo’ladi. Bordiyu tutomasa yana o’zi qo’lini cho’zganicha ochib turaveradi.

Tarbiyachi :

Bolalar, do’stlik haqida qanday she’rlarni bilasiz?

Chin do’st.

Ko’zing to’la jiqqa yosh,

Seni urdi qay bebosh!

Do’stim Zafar qoqilib,

Tushdi erga yiqilib,

Joni og’rib yig’ladi.

Raxmim kelib do’stinga

Yosh keldida ko'zimga,
 Do'st degani nima o'zi,
 Buncha shirin ekan so'zi.
 Kutar yaxshi so'zimni,
 Qilgan ezgu ishimni.
 Biron foyda ko'zlasam,
 Do'stim ko'ngli vayrona,
 Bolalar so'zi do'stona.

Tarbiyachi : bolalar, endi esa danak yashirish o'yinini o'ynaymiz.

O'yinda bitta bola qo'lga siqqanicha danak oladi va bolalarga qarab, chakta – chakmotak, danagim nechta? – deydi. Bolalarning har biri o'zining mo'ljalini aytadi. Keyin danak yashirgan bola qo'lini ochadi va danakni erga to'kadi. Kimda – kim danakni sonini to'g'ri topgan bo'lsa, o'sha bola hamma danaklarni oladi. Kam aytgan bola ham, ortiq aytgan bola ham farqini danak bilan to'laydi. O'yin shu zaylda davom etadi.

Tarbiyachi :

Bolalar, sizlar bilan birga ko'plab tez aytishlar o'rganganmiz, qani bilganingizni aytib bering.

Qishda kishmish pisharmish,
 Pishsa kishmish qishmasmish.
 Oq ot oq o't eydi,
 Ko'k ot ko'k o't eydi.

Tarbiyachi :

Bolalar, mana bugun biz sizlar bilan Do'stlik nima ekanligini, do'stlarning turlari va do'stlashish odoblari havida so'zlashdik. Siz ham do'st bo'lishni xoxlaysizmi va kim bilan do'stlashishni istaysiz?

Do'stlik xaqidagi ertaklarni hikoya qilib, harakatli o'yinlar o'ynadik, do'stlik haqidagi maqollarni takrorladik, tez aytishlarni aytdik.

Barchalaringiz to'g'ri javoblar berdingiz, mashg'ulotda barchangiz faol ishtirok etdingiz, hikoya, ertaklarni ifodali aytib berdingiz, raxmat sizlarga, shu bilan birga sizlar o'zingizdagi sabr – qanoat tuyg'ularingizni ham ko'rsatdingiz. Endi esa birgalikda Do'stlik haqida qo'shiq kuylaymiz.

Zamonaviy - ma'naviy taraqqiyotning hozirgi davrida xalqimizning o'tmishi, boy ma'naviy merosini o'rganishga, uning bebaho qadriyatlarini qayta tiklashga e'tibor qaratilmoqda. O'zbek xalqi o'zligini anglash, noyob an'ana, urf – odatlarini tiklashga ega bo'ldi. Shu bilan birga, inson hayotida uchraydigan har qanday zahmat va qiyinchiliklarga sabr – qanoatli bo'lishi kerak.

Ma'naviy boy barkamol inson dastlab o'zligini anglashi, ajdodlarimiz o'z tajribalarida sinab, yaxshi – yomon tomonlarini amaliyotda ko'rib, insondagi xulq – atvor va ma'naviy – axloqiy fazilatlarga ega bo'lishi lozimligini tavsiya etgan” deb aytib o'tgan edilar.

Darhaqiqat, sabr – qanoat hissi insonni e'tiqodi, vijdoni bilan bog'liq insonga xos ichki bir xususiyatdir. Sabr – qanoat tushunchalarini darajasi bevosita har bir insonni axloqiy tarbiyalanganlik darajasi bilan bog'liq. Sabrli, qanoatli insonning turmush tarzi oson kechmasada, qiyinchiliklardan so'ng uning ijobiy manfaatlari yuzaga chiqadi.

Biz malakaviy bitiruv ishining tajriba sinov ishlarini Jizzax tumanidagi G'uncha nomli 3-sonli maktabgacha ta'lim muassasasining katta yoshdagi guruhida o'tkazdik. Tajriba ishlarini uch bosqichda amalga oshirdik.

- malakaviy bitiruv ishi mavzusi yuzasidan adabiyotlar tanlanib ular tahlil qilindi.
- Maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulotlar ishlanmalari asosida bolalarda sabr – qanoat tushunchalarining tarbiyalanganligi darajasi o'rganildi.

- Tajriba sinov ishlari umumlashtirildi, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqildi.

SUHBAT

Mavzu : sabr – qanoat haqidagi tushuncha.

Suhbatning borishi:

Bolalar, bugun biz sizlar bilan sabr – qanoat haqida gaplashamiz. Qani sabr –qanoat haqida kim qanday tushunchaga ega ekan, kim o’z qikrini bildiradi.

Faxriddin – sabr bu, har qanday qiyinchilikka chidash.

Maxbuba - qanoat odobdan.

Temur - sabrning tagi sariq oltin degan bobolarimiz.

Yuqoridagi mashg’ulotlar bolalarga juda qiziqarlidir va bolalarni do’stga ishonch, do’st tutish odobi, sabr va qanoat bilan kutishga chorlaydi.

“Kim bilimdon” mavzusidagi mashg’ulotlarda ham bilim olishdagi mashaqqat hamda qiyinchilmklarga sabr va qanoat qilishga o’rgatiladi.

Davra suhbatlari.

Mavzu : “Shoshqaloq ” ertagi.

Dilshod ismli bola etti yoshga to’lgan bo’lsada, hamma narsani bilishni istar ekan. Shuning uchun ham hamma unga shoshqaloq deb laqab qo’yib olgan ekan. Shoshqaloqvoy bir kuni soya daraxt tagida yotgan ekan, tushida bir oppoq soqolli cholni ko’ribdi. Assalomu alaykum, keling bobojon deb uyg’onibdi va o’rnidan turmasdan yonidan joy beribdi. Shoshqaloqvoy boboga : nima qilib yuribsiz debdi. Bobo bolaning odobsizligidan biroz ranjibdi, lekin indamabdi. Men yo’ldan biroz toliqdim, shu soya daraxtni ostida biroz dam olib, tamaddi qilibodoqchi bo’lib to’xtadim deb, qo’lidagi dasturxonni yozibdi, dasturxon sehrli ekan, bir zumda dasturxonda turli noz-ne’matlar paydo bo’libdi. Buni ko’rib shoshqaloqvoy o’zini tutolmay, dasturxondagi ne’matlarni tez-tez eya boshlabdi. Boboga uning sabrsizligi va

qanoatli bo'lmaganligi yoqmaqdi. Buni sezib qolgan shoshqaloqvoy o'z xarakatlaridan uyalib ketibdi va ikkinchi marta bunday odobsizlik qilmayman, meni kechiring bobojon deb uzr so'rabdi.

Ertak yuzasidan bolalar bilan savol-javoblar o'tkazildi. So'ngra tarbiyachi bolalarga "Arslon va ayiq" ertagini hikoya qilib berdi.

Arslon bilan ayiq ikkalasi do'st bo'lib, bir kiyikni ovlab oldilar. Uni emoqchi bo'lganlarida, Arslon – men kattaman, menga ko'proq ulush berasan debdi. Ayiq esa men sendan kattaman, men esa ko'proq harakat qildim, demak ulushni kattasi menga tegadi deydi. Ular o'zaro janjallashib turgan paytlarida esa bo'rilar kiyik gzshtini eb qo'yibdilar.

Mana bolalar, ko'rdinglarmi, arslon va ayiq urushib, blriga qanoat qilmaganlari sababli ham go'shtdan mahrum bulib qoldilar.

So'ngra tarbiyachi suhbatni yakunlab, bolalarga savollar bilan suhbat haqidagi munosabatlarini o'rganadi. Hamma bir narsaga qanoat qilishi kerakliginibolalarga tushuntirdi va ularni sabrli, qanoatli bo'lishga chorladi. Bolalar o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib oladilar.

Akbar – ertak menga juda yoqdi. Men shoshqaloqlik qilmayman.

Salim – har bir ishda sabr kerak.

Anvar – Shoshqaloqvoy ovqatni chunonam ediku, bobo hayron bo'lib qoldi. U qanoat qilishni bilmas ekan.

Tarbiyachi : Bolalar, biz har bir ishni o'ylab, shoshmasdan bajarishimiz kerak ekan. Shoshilgan bola sabr – qanoat qilishni bilmaydi, bu esa odobsizlik.

Tarbiyachi :

Endi hammangiz oq qog'oz va qalam olinglar, Shoshqaloqvoyning rasmini chizib ko'ringlarchi, kim qanday uni tasavvur qilar ekan.

So'ngra rasmlar ko'rgazmasi o'tkaziladi va davra suhbatiga yakun yasaladi.

Tadqiqot ishlarini o'tkazish jarayonida biz kattayoshdagi gurux bolalarida sabr – qanoatlilik tushunchalari haqidagi bilimlarini aniqlash maqsadida savolnoma tuzdik. Quyida savolnomani keltiramiz:

1. Sabr nima?
2. Qanoatni qanday tushunasiz?
3. Sabr haqidagi qanday maqollarni bilasiz?
4. Sabr – qanoatli bola qanday bo'ladi?
5. Sabr – qanoatli bo'lishga o'zingiz amal qilasizmi?
6. Sabr – qanoat qachon va qay paytda kerak bo'ladi?

Maktabgacha yoshdagi bolalarda sabr- qanoat tushunchalari yuzasidan olib borilgan tarbiyaviy mashg'ulotlar gatiijasida quyidagi xulosaga keldik:

Bugungi kunda bolalarni ma'naviy va aqliy jihatdan etuk bo'lishlari uchun ijtimoiy hayotda sodir bo'ladigan, yuzaga keladigan qiyinchiliklarga bardoshli bo'lishlari, boriga shukrona qilishlari, qanoatli bo'lish kabi tushunchalarni bolalarning ongiga singdirish imkoni yaratiladi.

Sabr – qanoat tushunchalarini yanada chuqurroq o'rgatish maqsadida xalq meroslaridan keng miqyosda foydalanish yaxshi samara beradi.

O'tkazilgan tajriba sinovlari natijalari shundan dalolat beradiki, maktabgacha ta'lim katta yoshdagi bolalar sabr – qanoat tushunchalarini ma'nosini va mazmunini tajriba guruxidagilar 85% o'zlashtirishga erishdilar, bu esa tadqiqot jarayonida ular bilan shtkazilgan turli mavzu va mazmundagi mashg'ulotlarning samarasidan dalolat beradi.

UMUMIY XULOSA

Malakaviy bitiruv ishining oldiga qo'yilgan maqsad, vazifa va o'tkazilgan tadqiqotnatijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalar qilindi:

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma'naviy barkamolligini ta'minlashda sabrli va qanoatli bo'lishga amal qilish pedagogik muammo sifatida o'rganildi.

Bolalarda sabr – qanoat tushunchalarini tarbiyalashning manbai va mezonlari aniqlandi. Mashg'ulot va tarbiyaviy tadbirlar jarayonida bolalarni shaxsiy va mustaqil fikrlash, har bir tushunchaga munosabat bildirishlari talab etiladi.

Tarbiyachilardan mashg'ulotlarni xalq meroslari va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda tashkil qilish ijobiy natijalar berishi aniqlandi.

Malakaviy bitiruv ishida bolalarda sabr va qanoat tushunchalarini tarbiyalashni ba'zi xususiyatlari o'rganildi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda “Hadis”lardan foydalanish uchun birinchidan, ta'lim jarayonida hadislar va ularning turlari haqida ma'lumotlar berib borish maqsadga muvofiq bo'ladi;

Ikkinchidan, mashg'ulotlarda xadis ilmining namoyondalari haqida ma'lumot berish, hadislarining shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rnini ochib berish lozim. Savol – javoblar, bahs – munozaralar o'tkazish orqali bolalarning ijodiy va mustaqil ishlarini tashkil qilish, turli topshiriqlar berish va mashqlar orqali mashg'ulotning samaradorligini oshirish mumkin.

Uchinchidan, hadislarnda bayon etilgan odob – axloq me'yorini bolalarning egallashlari uchun bu me'yorlardan shaxs hayotining moddiy asoslari bilan bog'lab o'rgatish tavsiya etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”. –T.: “O'zbekiston”. 2011.
2. Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch”. – T.: “Ma'naviyat”. 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. –T., «O'zbekiston», 1992.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T., «O'zbekiston», 1996 .
5. Karimov I.A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni – xalq, millatni – millat qilishga xizmat esin. –T., «O'zbekiston», 1998 .
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.–T., «O'zbekiston», 1997 y.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T. «O'zbekiston», 2008
8. Anikeeva N.P. Jamoada ruhiy muhit. -T. “O'qituvchi”. 1993
9. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent. 2008.
10. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. -T. 1994.
11. Ochilov M., Ochilova N. –T.“O'qituvchi”. 1997.
12. Sodiqov B. Tarbiyasi qiyin o'smirlarga oid matnlar. Termiz. 2003.
13. To'raxonova R. Tarbiyasi og'ir bolalar psixologiyasi va ularni tarbiyalash. -T. “O'qituvchi”. 1987.
14. Tohir Malik. Mehmon tuyg'ular. –T. “Sharq nashriyoti”. 2008.
15. Uzoqov X., G'oziev E., Tojiev A. Oila etikasi va psixologiyasi. -T. “O'qituvchi”. 1992.
16. Shoumarov G'.B tahriri ostida. Oila psixologiyasi. –T. “Sharq nashriyoti”. 2008.

17. Shoumarov G'.B. 1001 savolga psixologning 1001 javobi. -T. 2001.
18. Берхин Б.Н. Общие проблемы психологии искусства. -М.Знание 1998, б 44
19. Булкас Т.М. Зевина О.Г. Опыт утверждения обще человеческих ценностей – культурных символов – в индивидуальном сознании. - М.Знание 1996
20. Вопросы психологии 1997. №5, 44-55
21. Виготский Л.С. Психология искусство. –М. 1987
22. Виготский Л.С. Педагогическая психология. -М. Педагогика. 1991
23. Виготский Л.С. Воображение творчества в детском возрасте – М. Просвещение. 1991
24. Вилюнас В.К. Психология и механизм биологической мотивации. -М. 1986
25. Григорьева Г.Г. Изобразительная деятельность в дошкольном возрасте – М. Академия. 1997